O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

Quritilgan shaftolining sotish va tijorat sifatini nazorat qilish

(EƏK OOH DDP-20:2008, IDT)

Rasmiy nashr

O‘zbekiston standartlar instituti
Toshkent

STANDARTLAR INSTITUTI #MUAE16HHNV - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

So‘z boshi

1 O‘zbekiston standartlar instituti tomonidan **ISHLAB CHIQILDI.**

2 O‘zbekiston standartlar institutining 2026-yil 21-iyuldagi 26/XSt-26-sonli buyrug‘i bilan **TASDIQLANDI.**

3 Ushbu standart EƏK OOH DDP-20:2008 “Concerning the marketing and commercial quality control of dried peaches ” xalqaro standartiga aynan o‘xshash.

4 DASTLABKI AMALGA KIRITILISHI

Ushbu milliy standart va unga bo‘lgan o‘zgartishlarni O‘zbekiston hududida amalga kiritish haqidagi axborot Standartlashtirish bo‘yicha milliy organning rasmiy veb-saytlari va standartlarning yillik axborot ko‘rsatkichlarida chop etiladi.

Ushbu standartni O‘zbekiston hududida rasmiy tarqatish mutlaq huquqi O‘zbekiston standartlar institutiga tegishlidir

STANDARTLAR INSTITUTI #MUAE16HHNV - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Muqaddima

Qishloq xo‘jaligi sifat standartlari bo‘yicha ishchi guruh

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa iqtisodiy komissiyasi (BMT YIK) Qishloq xo‘jaligi sifat standartlari bo‘yicha ishchi guruhi tomonidan ishlab chiqilgan tijorat sifat standartlari xalqaro savdoni yengillashtirish, yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarishni rag‘batlantirish, daromadlilikni oshirish va iste’molchilar manfaatlarini himoya qilishga ko‘masinfhadi. BMT YIK standartlarini hukumatlar, ishlab chiqaruvchilar, savdogarlar, import va eksport qiluvchilar hamda boshqa xalqaro tashkilotlar qo‘llaydi. Ular yangi meva-sabzavotlar, quruq va quritilgan mahsulotlar, urug‘lik kartoshka, go‘sht, kesilgan gullar, tuxum va tuxum mahsulotlarini o‘z ichiga olgan keng ko‘lamli qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qamrab oladi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining har qanday a’zosi Ishchi guruh faoliyatida teng huquqli asosda ishtirok etishi mumkin. Qishloq xo‘jaligi standartlari haqida batafsil ma’lumot olish uchun bizning http://www.unece.org/trade/agr/welcome.html veb-saytimizga tashrif buyuring.

Po‘choqli yong‘oqlarning marketingi va tijorat sifatini nazorat qilishga oid ushbu qayta ko‘rib chiqilgan DDP-20 standarti Ishchi guruh tomonidan 2025-yildagi saksoninchi sessiyasida qabul qilingan ECE/CTCS/WP.7/2008/14 hujjatiga asoslanadi.

Ushbu standartni talqin qilish yoki qo‘llashda tushunmovchiliklar yuzaga kelganda standartning asli yozilgan tillarining biridan foydalanish tavsiya etiladi.

STANDARTLAR INSTITUTI #MUAE16HHNV - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

QURITILGAN SHAFTOLINING SOTISH VA TIJORAT SIFATINI NAZORAT QILISH

ОТНОСИТЕЛЬНО МАРКЕТИНГА И КОММЕРЧЕСКОГО КОНТРОЛЯ КАЧЕСТВА СУШЕНЫХ ПЕРСИКОВ

CONCERNING THE MARKETING AND COMMERCIAL QUALITY CONTROL OF DRIED PEACHES

Amalga kiritish sanasi **1.08.2026-yil**

I Mahsulot ta’rifi

Ushbu standart Prunus persica Sieb va Zucc. turidan yetishtirilgan navlardan yetishtirilgan, bevosita iste’mol qilishga mo‘ljallangan yoki keyingi ishlov berilmagan holda bevosita iste’mol qilinadigan boshqa mahsulotlar bilan aralashtirish uchun mo‘ljallangan quritilgan hamda qayta ishlangan shaftolilarga tatbiq etiladi. Ushbu standart shakar quyish, ta’m/hid berish orqali qayta ishlangan yoki sanoatda qayta ishlashga mo‘ljallangan quritilgan shaftolilarga tatbiq etilmaydi.

Quritilgan shaftolilar quyidagi ko‘rinishlarda sotuvga chiqarilishi mumkin:

- Butun (danaksiz)
- Yarimta (quritishdan oldin bo‘ylama bo‘yicha ikki teng qismga kesilgan va danagi ajratilgan shaftolilar)
- Tilingan (asosan parallel ravishda kesilgan, o‘lchami va qalinligi bir xil bo‘lmagan tasmalar).
- Yassi (shakli, o‘lchami va qalinligi bir xil bo‘lmagan, danagi ajratilgan sog‘lom shaftoli bo‘laklari).

II Sifatga oid qoidalar

Standartning maqsadi — quritilgan shaftolilarga tayyorlash va qadoqlashdan keyingi eksport nazorati bosqichida qo‘yiladigan sifat talablarini belgilashdan iborat.

Biroq, agar standart eksport yoki jo‘natishdan keyingi bosqichlarda qo‘llanilsa, mahsulot egasi/sotuvchisi ushbu standart talablariga rioya etishi uchun mas’ul hisoblanadi. Mahsulot egasi/sotuvchisi bunday mahsulotlarni standartga muvofiq bo‘lmagan shaklda namoyish etishi, sotuvga qo‘yishi, yetkazib berishi yoki bozorga chiqarishi mumkin emas.

A. Minimal talablar[1]

Barcha sinflarda, har bir sinf uchun belgilangan maxsus qoidalar va ruxsat etilgan chetlanishlar hisobga olingan holda, quritilgan shaftolilar quyidagi ko‘rsatkichlarga javob berishi kerak:

---

[1] Atamalar va nuqsonlarning ta’riflari Namunaaviy standartning (Standart sxemaning) III ilovasida — «Quruq (pustloqli yong‘oqlar va yong‘oq mag‘izlari) hamda quritilgan mahsulotlar standartlari uchun tavsiya etilgan atamalar va nuqsonlar ta’riflari»da keltirilgan.:

<http://www.unece.org/trade/agr/standard/dry/StandardLayout/StandardLayoutDDP_e.pdf>.

B. Minimal talablar[1]

STANDARTLAR INSTITUTI #MUAE16HHNV - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Barcha sinflarda, har bir sinf uchun belgilangan maxsus qoidalar va ruxsat etilgan chetlanishlar hisobga olingan holda, quritilgan shaftolilar quyidagi ko‘rsatkichlarga javob berishi kerak:

- butun (faqat butun va yarimta shakldagi mahsulotlar uchun); biroq chetlarining biroz yirtilganligi, yuzasidagi yengil shikastlanishlar va yengil tirnalishlar nuqson deb hisoblanmaydi.
- sifatli; chirish yoki buzilish natijasida odamlar tomonidan iste’mol qilish uchun yaroqsiz holga kelgan mahsulotlar bundan mustasno.
- toza bo‘lishi; har qanday ko‘rinadigan begona aralashmalardan amalda xoli bo‘lishi kerak.
-yetarli yetilgan
- yetilgan har qanday bosqichidagi tirik zararkunandalardan xoli bo‘lishi kerak
-Zararkunandalar tomonidan yetkazilgan shikastlanishlardan, shu jumladan o‘lik hasharotlar va/yoki kanalar, ularning qoldiqlari yoki ajratmalarining mavjudligidan xoli bo‘lishi kerak.
- mahsulotning qolgan qismidan yaqqol ajralib turadigan hamda mahsulot sirtining umumiy hisobda 5 foizdan ko‘p qismini egallagan nuqsonlar, rang o‘zgargan joylar yoki yoyilgan dog‘lardan xoli bo‘lishi.
- oddiy ko‘z bilan ko‘rinadigan mog‘or iplaridan xoli bo‘lishi
- achish belgilaridan xoli bo‘lishi
- me’yordan tashqari tashqi namlikdan xoli bo‘lishi
- begona hid va/yoki ta’mdan xoli bo‘lishi, natriy xlorid ta’mi hamda konservantlar/oziq-ovqat qo‘shimchalarining yengil hidi bundan mustasno[2]

Quritilgan shaftolilarning holati quyidagilarni ta’minlaydigan darajada bo‘lishi kerak:

- transportirovka qilish hamda yuklash-tushirish jarayonlariga bardosh berish;
- yetib borish joyiga qoniqarli holatda yetib borishini ta’minlash.

B.Namlik ko‘rsatkichi[3]

Ishlov berilmagan quritilgan shaftolilarning namlik miqdori 20,0 foizdan oshmasligi kerak, bu ularning tayinlangan manzilga qoniqarli holatda yetib borishini ta’minlash uchun zarurdir.

Konservantlar bilan ishlov berilgan yoki boshqa usullar yordamida (masalan, pasterizatsiya qilingan) saqlanishi ta’minlangan quritilgan shaftolilarning namlik miqdori 20,0 dan 37,0 foizgacha bo‘lishiga ruxsat etiladi.

C. Tasniflash

Yo‘l qo‘yiladigan chetlanishlar (tolerantlik) to‘g‘risidagi qoidalar» bo‘limida ruxsat etilgan nuqsonlarga muvofiq, quritilgan shaftolilar quyidagi toifalarga tasniflanadi:

“Oliy” Sinf, I Sinf, II Sinf

Yo‘l qo‘yiladigan nuqsonlar mahsulotning sifati, sifatini yo‘qotmay saqlanishi hamda qadoqdagi tovar ko‘rinishiga nisbatan umumiy ko‘rinishiga salbiy ta’sir ko‘rsatmasligi shart.

Kelishmovchilik yuzaga kelgan hollarda laboratoriya nazorat usuli qo‘llanilishi shart.

III. O‘lcham me’yorlari

Quritilgan shaftolilarni o‘lchamlari bo‘yicha saralash barcha navlar uchun ixtiyoriydir. Biroq, o‘lchamlari bo‘yicha saralanganda, o‘lcham quyidagilar orqali aniqlanadi.

STANDARTLAR INSTITUTI #MUAE16HHNV - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

- Diametr: quritilgan mevaning maksimal diametri.

- Donalar soni: 1000 g yoki bir funtdagi (453,5 g) quritilgan meva bo‘laklari soni.

IV. Ruxsat etilgan chetlanishlarga oid qoidalar

Ko‘rsatilgan navning minimal talablariga javob bermaydigan mahsulotlar uchun har bir mahsulot turkumida sifati va o‘lchami bo‘yicha yo‘l qo‘yiladigan chetlanishlarga ruxsat beriladi.

A Sifat bo‘yicha yo‘l qo‘yiladigan chetlanishlar

Ruxsat etiladigan nuqson[4]	**Yo‘l qo‘yiladigan nuqsonlar** Dona hisobiga yoki og‘irligiga ko‘ra nuqsonli quritilgan shaftolilarning foiz miqdori		
	Oliy	**Birinchi sinf**	**Ikkinchi sinf**
a) Minimal talablarga javob bermaydigan quritilgan shaftolilarning ruxsat etilgan chetlanish me'yori, bunda ularning ulushi quyidagidan ortiq bo'lmasligi kerak	**10**	**15**	**20**
-Achigan, zararkunandalar bilan zararlangan, chirigan yoki mog'or bosgan mahsulotlar, shundan:	2	3	5
Mog'or bosgan[6]:	1	1	2
- Dog'langan, rangi o'zgargan va/yoki ifloslangan meva	3	5	10
- Mexanik shikastlanishlar, g‘adir-budirliklar	3	5	8
- Konsistensiyadagi (tuzilishdagi) jiddiy nuqsonlar va issiqlikdan shikastlanish	2	3	5
-zararkunandalar	0	0	0
b) **ruxsat etilgan o'lcham** O‘lchamlarga ajratilgan (kalibrlangan) taqdirda, ko‘rsatilgan o‘lchamga mos kelmaydigan mahsulotlar uchun.			
-Dona soni bo‘yicha o‘lchamlarga ajratilganda (bir kilogramm/funtda mahsulot birliklari soni), belgilangan dona sonidan yuqori yoki past bo‘lgan chetlanishlar uchun yo‘l qo‘yiladigan me’yor	2	2	2

---

[2]. Oltingugurt dioksidining (SO_2) yengil hidi “g‘ayritabiiy” (nuqsonli) deb hisoblanmaydi. Konservantlar import qiluvchi mamlakatning qonunchiligiga muvofiq qo‘llanilishi mumkin. Quritilgan shaftolilar o‘zining asl rangini saqlab qolish maqsadida oltingugurt bilan ishlov berilgan bo‘lishi mumkin.

[3].Namlik miqdori Standart namunasining «I ilova. Quritilgan mahsulotlar uchun namlik miqdorini aniqlash» qismida keltirilgan usullardan biri yordamida aniqlanadi.

[4]. Nuqsonlarning standart ta’riflari Quruq va quritilgan mahsulotlar standarti maketining (shablonining) III ilovasida keltirilgan.

http://www.unece.org/trade/agr/standard/dry/StandardLayout/StandardLayoutDDP_e.pdf

STANDARTLAR INSTITUTI #MUAE16HHNV - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Ruxsat etiladigan nuqson[4]	Yo‘l qo‘yiladigan nuqsonlar Nuqsonli quritilgan shaftoli mahsulotlarining dona soni yoki og‘irligiga nisbatan foiz ulushi.		
	Oliy	**Birinchi sinf**	**Ikkinchi sinf**
Belgilangan oraliq yoki g‘alvir o‘lchamidan foydalanishga yo‘l qo‘yiladi.			
-Mahsulot birliklarining diametri bo‘yicha o‘lcham-larga ajratilganda, ko‘rsatilgan o‘lchamga yoki g‘alvir talablariga muvofiq bo‘lmagan mahsulotlar uchun dona soniga nisbatan yo‘l qo‘yiladigan chetlanish me’yoriga ruxsat etiladi.	10	10	10
(c) Boshqa nuqsonlar uchun yo‘l qo‘yiladigan chetlanishlar me’yori			
- Butun mahsulotlar orasida yarimta, tilimlangan yoki yassi bo‘laklarning mavjudligi	1	2	3
- Yarimta mahsulotlar orasida butun, tilimlangan yoki yassi bo‘laklarning mavjudligi	1	2	3
- Yot aralashmalar va begona o‘simlik moddalari.	0,5	0.5	0.5
-Butun quritilgan shaftoli mahsulotlari tarkibida butun danaklarning mavjudligi	0.25	0.5	0.75
- Yarimta va maydalangan bo‘laklar orasida danak parchalari (siniqlari)ning mavjudligi.	1	3	5
-Ko‘rsatilganidan boshqa navlarga yoki tijorat turlariga mansub bo‘lgan quritilgan shaftoli mahsulotlari.	10	10	10

V. **Mahsulotni taqdim etish bo‘yicha talablar**

A. Bir xillik

Har bir qadoq tarkibi bir xil bo‘lishi hamda faqat bir xil kelib chiqishga (ishlab chiqarilgan mamlakatga), sifatga va o‘lchamga ega bo‘lgan quritilgan shaftolilardan iborat bo‘lishi lozim. „Oliy“ Sinfda quritilgan shaftolilar shakli va tashqi ko‘rinishi bo‘yicha o‘xshash hamda yaqqol bir xil rangga[7] ega bo‘lishi kerak. I sinfda quritilgan shaftolilar rangi[7] bo‘yicha yetarli darajada bir xil bo‘lishi lozim

Qadoq tarkibining ko‘rinib turgan qismi butun tarkibni ifodalovchi bo‘lishi kerak.

B. Qadoqlash

Quritilgan shaftoli mahsulotlari ularning tegishli darajada himoya qilinishini ta’minlaydigan tarzda qadoqlanishi lozim.

Qadoq ichida foydalaniladigan materiallar toza hamda mahsulotga har qanday tashqi yoki ichki shikast yetkazilishining oldini oladigan sifatga ega bo‘lishi lozim. Materiallardan, xususan,

---

[5.] Sinov o‘tkazish uchun kamida bir kilogramm miqdorida minimal namuna birligi talab etiladi.

STANDARTLAR INSTITUTI #MUAE16HHNV - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

tijorat tavsiflari tushirilgan qog‘oz yoki shtamplardan foydalanishga yo‘l qo‘yiladi, basharti matn yoki yorliqlar toksik bo‘lmagan bo‘yoq yoki yelim yordamida bajarilgan bo‘lsa.

C. Mahsulot ko‘rinishi

Quritilgan shaftoli mahsulotlari xaltalarda yoki qattiq idishlarda konteynerlarda taqdim etilishi lozim. Har bir transport qadog‘i ichidagi barcha chakana savdo qadoqlari bir xil vaznga ega bo‘lishi shart.

VI. Tamg‘alashga oid qoidalar

Har bir qadoqning[8] bir tomonida guruhlangan, tashqaridan yaqqol ko‘rinib turadigan, aniq o‘qiladigan va o‘chmaydigan harflar bilan yozilgan quyidagi ma’lumotlar ko‘rsatilgan bo‘lishi lozim:

A. **Identifikatsiya**

Qadoqlovchi va/yoki jo‘natuvchi: Nomi va geografik joylashgan manzili (masalan: ko‘cha/shahar/viloyat/pochta indeksi va agar kelib chiqqan mamlakatdan farq qilsa, mamlakat nomi) yoki milliy vakolatli[9] organ tomonidan rasman tan olingan kodli belgi.

B. Mahsulotning tabiati

- Quritilgan shaftoli“, u bilan birga tegishli ravishda „butun“, „yarim“, „tilim“ yoki yassi bo‘laklar
- Qayta namlangan“ yoki unga tenglashtirilgan nom, agar qo‘llash mumkin bo‘lsa.
- Navning nomi tijorat turi (ixtiyoriy)
-

C. Mahsulotning kelib chiqishi

- Kelib chiqqan mamlakat va ixtiyoriy ravishda yetishtirilgan tuman yoki milliy, mintaqaviy yoxud mahalliy joy nomi.
-

D. Tijorat spetsifikatsiyalari

- Sinf
- O‘lcham (agar belgilangan bo‘lsa); III-bo‘limga muvofiq ifodalanadi
- Hosil yili (ixtiyoriy)
- Namlik miqdori (ixtiyoriy, biroq yuqori namlikka ega mahsulotlar uchun majburiy)
- “Iste’mol qilish tavsiya etiladi“ (ixtiyoriy).

E. Rasmiy nazorat belgisi (ixtiyoriy)

2008-yilda qabul qilingan

---

6. Polshaning barcha sinflardagi mahsulotlar uchun mog‘or miqdoriga 0,5 foizli ruhsat etilgan og‘ish me'yorini belgilash bo‘yicha sharti.

7. “Oliy“ sinfi uchun ko‘pi bilan ketma-ket keluvchi uchta rang oralig‘iga, I sinf uchun esa ko‘pi bilan ketma-ket keluvchi beshta rang oralig‘iga yo‘l qo‘yiladi. Qadoqlar „IV. Yo‘l qo‘yiladigan chetlanishlar to‘g‘risidagi qoidalar“ bo‘limidagi chetlanishlar jadvaliga muvofiq, har qanday yot aralashmalardan xoli bo‘lishi lozim

8. Iste’molchiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri sotish uchun oldindan qadoqlangan mahsulot birliklariga ushbu markalash qoidalari tatbiq etilmaydi, biroq ular milliy qonunchilik talablariga muvofiq bo‘lishi lozim. Shunday bo‘lsa-da, har

STANDARTLAR INSTITUTI #MUAE16HHNV - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

qanday holatda ham, ko‘rsatib o‘tilgan markalash ma’lumotlari ushbu qadoqlash birliklari joylashtirilgan transport qadog‘ida aks ettirilishi shart.

[9] Bir qator mamlakatning milliy qonunchiligi [qadoqlovchi/jo‘natuvchining] nomi va manzilini aniq ko‘rsatishni talab qiladi. Biroq, kodli belgidan foydalanilgan hollarda, „qadoqlovchi va/yoki jo‘natuvchi“ (yoki unga tenglashtirilgan qisqartmalar) degan ko‘rsatkich ushbu kodli belgi bilan uzviy bog‘liq holda ko‘rsatilishi shart, shuningdek, agar ushbu kod mahsulot kelib chiqqan mamlakatdan boshqa davlatga tegishli bo‘lsa, kodli belgidan oldin uni tan olgan (ro‘yxatdan o‘tkazgan) mamlakatning ISO 3166 standartiga muvofiq alfa kodi ko‘rsatilishi lozim.

STANDARTLAR INSTITUTI #MUAE16HHNV - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI